

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH

Dadamirzayeva Zulayxo Ma'rufjon qizi

Namangan davlat texnika universiteti

Email: zulayxodadamirzayeva@gmail.com

Abstract: O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish borasida turli xil chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Qashshoqlashish, kambag'allashish muammosini oldini olish, aholi bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlikka oid intilishlarini rag'batlantirish iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishning muhim kaliti hisoblanadiki, pirovardida aholi farovonligi yaxshilana boradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, aholi daromadlardagi tengsizlik bozor tizimining belgisi bo'lar ekan, bu tizimda kambag'allarning bo'lishi ob'ektiv hodisadir. Shu sababli kambag'allikni tugatib bo'lmaydi, lekin uning miqyosi qisqarishi mumkin. Boisi kambag'allik millatning sog'lig'i, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati natijasida davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, aholi bandligi, oilaviy biznes, tadbirkorlik, temir daftar, yoshlar daftari, ayollar daftari, ijtimoiy himoya

KIRISH

Rivojlangan davlatlarda uzoq yillardan buyon hukm surayotgan bozor iqtisodiyoti tengsizlikka asoslangan taqsimot munosabatlarini namoyon qildi va qilmoqda. Bunday sharoitda ba'zi xo'jalik sub'ektlarida foyda miqdorining ko'payib bozorda yuqori mavqega ega bo'lishi kuzatilsa, ba'zilarida esa ishlab chiqarish bozor talablariga javob bermay, raqobat kurashida yengilib zarar ko'rishi, inqirozga uchrashi hamda xonavayron bo'lishi tabiiy holatga aylandi. O'z navbatida bunday iqtisodiy munosabatlar tizimida o'zini oqlamaydigan iqtisodiy faoliyat turlarini tugatilishi bilan birga boshqa yangi iqtisodiy faoliyatning tanlanishi ro'y beradi.

Kambag'allik–indivud yoki oilaning asosiy ehtiyojlari ularni qanoatlantirish uchun mavjud bo'lgan mablag'lardan ko'proq bo'ladigan bir holat . Iqtisodchi olim N. Beknozovning fikricha, kambag'allik –kishi o'zining asosiy ehtiyojlari uchun pul mablag'lari yetarli bo'lmagan, mulk va boshqa resurslar bilan nisbatan kam ta'minlangan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining past darajada qondirilishidir.

Iqtisod fanlari doktori, akademik R. Abdullayevning fikriga ko'ra, “Kambag'allik” deganda–indivud yoki ijtimoiy guruhning shunday iqtisodiy holatini tushunish kerakki, bunday holatda ular yashash, mehnat qobiliyatini saqlash, ko'payish uchun zarur bo'lgan ma'lum minimal ehtiyojlarini qondira olmay qoladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

1.1-jadval

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM

Mamlakatlar	1995 yil	2018 yil	O'sish, marta	Mamlakatlar	1995 yil	2018 yil	O'sish %
Xitoy	610	9771	16,0	Moldova	477	3227	6.8
Ozarbayjon	397	4721	11.9	Mo'g'uliston	632	4122	6.5
Vetnam	277	2567	9.3	Hindiston	374	2010	5.4
Armaniston	456	4212	9.2	Belarus	1371	6290	4.6
Litva	2169	19153	8.8	Rossiya	2666	11289	4.2
Gruziya	578	4717	8.2	Tojikiston	214	826	3.9
Latviya	2322	17861	7.7	Qirg'iziston	364	1281	3.5
Qozog'iston	1288	9813	7.6	Ukraina	936	3085	3.3
Estoniya	3131	23266	7.4	O'zbekiston	586	1532	2.6

Jadvaldagi birinchi ustun— mamlakatlar, sobiq SSSR mamlakatlari, ayrimlari qo'shnilarimiz. Ikkinchi ustun— 1995 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot. Uchinchi ustun— 2018 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot. To'rtinchi ustunda esa necha barobar o'sish kuzatilganligi o'z aksini topgan. Bu dollardagi nominal o'sish,— real o'sish emas. Lekin mamlakatlarni bir-biri bilan taqqoslash mumkin. 1.1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston 1995-2018 yillar mobaynida mazkur mamlakatlarga nisbatan eng yomon rivojlangan. Iqtisodiy rivojlanish sur'ati past bo'lgan. Buning sababi kambag'al mamlakatlarda odamlarni pul topish, pulni jamg'arish va investitsiya qilish, innovatsiyalar tadbiq etish rag'batlantirilmadi. Ko'p muammolar o'tmishga borib taqaladi.

Qashshoqlashish, kambag'allashish muammosini oldini olish, insonga munosib turmush tarzini, ularning tadbirkorlikka oid intilishlarini rag'batlantirish, qulay sharoit yaratish bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqishining muhim kalitidir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki davrida kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillarni quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Eski sobiq ittifoq davlatlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarni qisqarishi, ishlab chiqarish hajmining keskin pasayib ketishi va iqtisodiy sub'ektlar daromadining qisqarishi.

2. Dastlabki kapital jamg'arish daromadlarning adolatsiz o'zlashtirilishiga, bir guruh jamiyat a'zolari daromadining keskin kamayib, boshqalar kapitaliga aylanishi.

3. Muayyan davrlar oralig'ida bozor turlarining shakllanib ulgurmaganligi va resurslarning yetishmasligi aholi bandligini qisqartirib ishsizlar sonini ko'paytirdi. Bu esa kambag'allik sari yana bir turtki bo'ldi;

4. Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan byudjet mablag'lari yetarli emasligi.

5. Aholi daromadlariga nisbatan narx-navoning tez o'sishi, giperinflyatsiya holatining vujudga kelishi tufayli kambag'allar safini qat'iy belgilangan daromad oluvchilar hisobidan kengayishi.

Kambag'allik darajasi iqtisodiyotning umumiy darajasiga teskari mutanosiblikda bo'ladi. Shu sababli iqtisodiyoti kuchli mamlakatlarda kambag'allik darajasi past bo'lsa, iqtisodiyoti zaif mamlakatlarda u yuqori bo'ladi. Kambag'allik ko'rsatkichi iqtisodiy o'sishga qarab o'zgaradi. Kambag'allikning mamlakatimizda ko'plab jihatlari bor, ular mustahkam doira tashkil etgan holda bir-biri bilan bog'langan. Xususan:

1. Aholi salomatligining nochorligi, kasalliklar va mehnat qobiliyati yo'qligining o'zi odamlarga to'liq ish kuni mehnat qilish imkonini bermaydi, natijada ularning daromadi chegaralanib, kambag'allikdan qutulish uchun mablag' topish imkoniyatidan mahrum etadi. Ayniqsa, oila boshlig'ining salomatligi muammosi-daromadni keskin chegaralaydi, umuman, kasallik oilaning moddiy asoslarini izdan chiqarib yuboradi. Bu holda daromad kamayishi bilan birga dori-darmon sotib olishga, meditsina xizmatlariga, oilaning bemor a'zosini parvarishlashga qo'shimcha xarajatlar zarur bo'ladi.

2. Kasb-hunar kollejlari va o'rta maktablarni bitirganlarning ma'lum qismi kambag'allar safiga asta-sekin qo'shilib borishidir. Bunga ularning ishsizliklari va ish o'rinlarini yetishmasligi sabab bo'ladi. Ularni ishlab oilaga yordam berishlari va oliy ta'limdagi o'qitish xarajatlari kambag'al oila farzandlarini yetarlicha ta'lim ololmay qolishlariga sabab bo'lib, keyin ular ham past ish haqi to'lanadigan joylarda ishlashga majbur bo'ladilar.

3. Bandlik uchun yetarli imkoniyatlar yo'qligi sabab qishloq joylaridagi ko'plab odamlar kambag'allikdan qutulish uchun o'z vatanlaridagi yoki boshqa mamlakatlardagi shaharlarga ish qidirib ketib qolmoqdalar. Natijada har yili respublikamiz bo'yicha 2,5-3 mlndan ortiq mehnat resurslari mamlakatdan tashqarida mehnat qilmoqdalar.

4. Maorif, sog'liqni saqlash, toza ichimlik suvi va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanish darajasining yetarli emasligi sabab toza ichimlik suvi bo'lmagan joylarda kasalliklar turi va kasallanganlar soni ko'proq bo'lmoqda.

1.2-jadval

O'zbekistonda kambag'allik darajasini hududlar bo'yicha taqsimlanishi

Hududlar	2014 y	2015 y	2016 y	2017 y	2018 y	2020 y
Qoraqalpog'iston	28,8	28,3	27,6	26,3	25,9	4,2
Respublikasi	9,9	9,3	8,7	8,0	7,9	8,1
Andijon	10,7	10,1	9,3	9,2	8,9	5,7

Buxoro	15,8	15,4	14,8	14,3	14,0	5,4
Jizzax	23,5	23,2	22,6	22,4	20,9	7,3
Qashqadaryo	14,4	13,9	13,2	12,9	12,2	6,0
Navoiy	15,7	15,2	15,0	14,3	14,0	4,0
Namangan	10,9	10,2	9,7	9,1	8,6	5,7
Samarqand	20,5	20,0	19,7	19,2	18,7	5,2
Surxondaryo	18,3	17,7	16,4	16,1	15,3	5,8
Sirdaryo	8,5	7,9	7,4	7,0	6,5	5,5
Toshkent viloyat	8,4	7,8	7,4	7,3	6,6	7,0
Farg'ona	15,1	14,3	13,3	12,9	12,5	3,0
Xorazm	1,5	0,9	0,7	0,6	0,4	2,3
Toshkent shahri	14,4	13,8	13,2	12,8	12,3	5,5

“Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimini joriy etish barcha ayollar va yoshlarning ehtiyojlarini maxsus markerlar orqali belgilab berishga xizmat qiladi. Ishlash va o'z malakasini oshirish ishtiyoqi bor bo'lgan fuqarolarni jadallashtirilgan ta'lim tizimlari orqali bozorbop kasb va hunarlarga o'qitish, maxsus sertifikatlar bilan ta'minlash ishiga asos solinadi. Ularning kasbiy malakalarini, turli kasb-kor va hunarlar bo'yicha mahoratlarini o'stirish, dunyo miqyosida talab yuqori bo'lgan va raqobatbardosh kasbiy kompetentsiyalarni aholi o'rtasida rivojlantirish, ishsiz ayollar va yoshlarni tadbirkorlikka, xususan, oilaviy tadbirkorlikka, o'z-o'zini band qilish ishlariga keng jalb etish, ayollar va yoshlar ichidan yangi mulkdorlar qatlamini shakllantirish kabilar mazkur daftarlarning maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda Bosh vazirning o'rinbosarlari va maslahatchilari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari, sektorlar rahbarlari ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolari bo'yicha “Temir daftar”ga, ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishli “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni kambag'allikdan chiqarish va ularning farovonligini oshirish uchun shaxsan mas'ul etib belgilangan.

“Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftari” tizimini joriy etishdan maqsad shuki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish jarayonida jamiyatda aholining ijtimoiy qatlamlarga bo'linishi bir tomondan oz sonli mulkdorlarni, ikkinchi tomondan ko'p

sonli kambag'allarni yuzaga keltirdi. Eng muhimi, mamlakatimiz davlat siyosatida kambag'allik mavjud ekanligini e'tirof etgan holda ularning manfaatlarni himoya qilish, ularning farovonligini ta'minlashga qaratilgan davlat ijtimoiy siyosatini yuritish bosh vazifa sifatida belgilab olindi. Xususan, amalda kambag'allikni oldini olish, kambag'allikning indikatorlarini belgilash, rag'batlantirish mexanizmlari orqali kambag'al qatlamlarni o'z-o'zini band qilish, oilaviy daromadning nufuzini ta'minlash, ayollar va yoshlar uchun keng iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar yaratish, ular orzu-umidlari va barcha ehtiyojlarining ochik, shaffof tarzda namoyon bo'lishini ta'minlash g'oyalari e'lon kilindi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi mutasaddiligidagi tashkil etilgan ayollar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasi tarkibidagi ishchi guruhlar olti yarim milliondan ortiq xonadonga birma-bir kirib, xotin-qizlar bilan suhbat o'tkazib, ayollar muammolarini o'rgandi. Natijada kasaba uyushmalari, tegishli vazirliklar va sektor rahbarlari bilan hamkorlikda 9 toifadagi, ya'ni birinchi navbatda, ko'mak berilishi kerak bo'lgan 432 ming 781 nafar ayol "Ayollar daftari" ga kiritildi.

Prezidentimizning 2021 yil 5 martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirishda muhim asos bo'ldi. Unda ayollar bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishga oid vazifalar belgilab berildi. Xususan, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan o'z biznes g'oyasiga ega ana shunday xotin-qizlarga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan 9,5 milliard so'm subsidiya ajratildi. Natijada, 3379 nafar ayollarning bandligi ta'minlandi. Jumladan, shaxsiy tomorqalarni rivojlantirish uchun 2015 nafar kam ta'minlangan, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga yengil tipdagi issiqxona qurish, shaxsiy va dala tomorqasida ekishga urug'lar va ko'chatlar hamda sug'orish vositalari xarid qilish uchun olti milliard so'm subsidiya ajratildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Mamlakatimizda kambag'allik muammosi va unga ta'sir etuvchi omillar, kambag'allikni kamaytirish bilan bog'liq jarayonlarni o'rganib quyidagi xulosaga keldik:

- mamlakatimizda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, bo'sh ish o'rinlari to'g'risida aniq ma'lumotlar bazasini shakllantirish va to'ldirib borish, hududlarda ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish;
- Mamlakat miqyosida, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordagi daromadlar darajasini belgilash;
- "Temir daftar" ga kiritilgan, shuningdek, mahallalardagi ishsizlarni, ayniqsa,

ayollar va yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida bepul o'quv kurs va kasbga tayyorlash ishlariga jalb qilish;

- Hudud imkoniyatlaridan kelib chiqib, hududlar kesimida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va o'z vaqtida moliyalashtirish;

- Kambag'allikni kamaytirishga oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish orqali o'z-o'zini band qilish bilan erishish mumkin. Biroq sohalarda kasanachilarni oylik ish haqlarini o'z vaqtida bermaslik mazkur yo'nalishni rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda;

- Aholining turmush darajasini oshirish va farovonlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri sifatida ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bunda ishga joylashish imkoniyatini yaratuvchi, tegishli davlat organlari bilan bir qatorda, fuqarolarning mas'uliyatini oshiruvchi, har bir insonning shaxsiy sharoitini hisobga oluvchi, o'ziga mustaqil yordam bera olmaydiganlarni qo'llab-quvvatlovchi faol va ta'sirchan siyosat yuritish, ushbu maqsadlarga jamiyat va xususiy sektor resurslarini jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi;

- nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda odamlarimizni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlarini ishlab chiqish va kasbga o'qitishda nodavlat tashkilotlarning faolligini kuchaytirish;

- fuqarolarning oilaviy byudjeti daromadlarini oshirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida kasanachilik mehnatini rivojlantirish kerak. Bunda zamonaviy mashinalar, uskunalar, xomashyo va materiallarni xarid qilish uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini, ularga marketingni amalga oshirish va kasanachilik mahsulotini ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida buyurtmachilarni topishga ko'maklashish, bozorda talab yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishda boshqa tadbirkorlik sub'ektlari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ko'maklashish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Botirjon o'g'li, M. B., & Hasanboy o'g'li, S. D. (2022). ORGANIZATION AND INCREASE OF ACTIVITY OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 19 mart, PF-5969-son
3. "2030 yilga qadar O'zbekiston respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senatining Qarori. 2021 yil 28 may, SQ-297-IV-son
4. Mahallalardagi holat, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash masalalari to'g'risida" 2021 yil 25 iyun, SQ-325-IV-son